

BO‘LAJAK AGRANOMLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Alijonova Maxbuba Rustamjonovna

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

O‘zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri dotsent

Аннотация: Ushbu maqolada Qishloq xo‘jaligi vazirligi sohada innovatsion loyihalarni hayotga tatbiq etishga, ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bo‘lajak mutaxassis agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari kasbiy ta‘lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta‘lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga doir ma‘lumotlar bayon qilingan.

Калит so‘zlar: zamonaviy texnologiyalar, innovatsiya, pedagogik tajriba, kompetentsiya, metodologiya, kasbiy mahorat, tayyorgarlik, kasbiy kompetentsiya, kasbiy qobiliyat

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Алиджонова Махбуба Рустамжоновна

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Доцент, заведующий кафедрой педагогики

узбекского языка и физической культуры

Аннотация: В данной статье рассмотрена реализация инновационных проектов в сфере Минсельхоза, как следствие реформ, реализуемых в системе образования, вопрос современных технологий развития профессиональной компетентности будущих специалистов-агрономов, вопрос специальной подготовки по профессиональному образованию рабочих профессий, а также формирования профессиональных умений и компетентностных качеств у обучающегося.

Ключевые слова: современные технологии, инновации, педагогический опыт, компетентность, методология, профессиональное мастерство, подготовка, профессиональная компетентность, профессиональные способности

MODERN TECHNOLOGIES OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE AGRICULTURAL PROFESSIONALS

*Alijonova Makhbuba Rustamjonovna
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies
Associate Professor, Head of the Department of Uzbek Language,
Pedagogy and Physical Culture*

***Abstract:** This article examines the implementation of innovative projects in the field of the Ministry of Agriculture, as a consequence of reforms implemented in the education system, the issue of modern technologies for the development of professional competence of future agronomist specialists, the issue of special training in vocational education of blue-collar professions, as well as the formation of professional skills and competence qualities in the student.*

***Key words:** modern technologies, innovation, teaching experience, competence, methodology, professional excellence, training, professional competence, professional abilities*

Kirish. Qishloq xo‘jaligi vazirligi sohada innovatsion loyihalarni hayotga tatbiq etishga katta e‘tibor qaratmoqda. Olib borilayotgan izlanishlar, turli darajadagi hamkorliklar negizida tarmoqda tub burilishlar ro‘y berishi kutilyapti. Avvalo, sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari va texnik vositalari yordamida raqamlashtirishni bosqichma-bosqich amalga oshirishda “Aqlli qishloq xo‘jaligi”ni joriy etish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqiladi. Loyiha amaliyotga tatbiq etilsa, dehqonchilik mahsulotlarining eksport imkoniyati kengayadi, “ishlab chiqarishdan peshtaxtagacha” kuzatuv tizimini 50 foiz ishga tushirishga erishiladi. Mehnat unumdorligi 30 foiz oshib, paxta hosili to‘liq mashinada terib olinadi. Stresslarga

chidamli, yuqori hosildor, tashishga moslashgan, bioaktiv moddalarga boy ekinlar navlarini yaratish 100 foiz ta'minlanadi.

Talabalarda kasbiy kompetentligining ma'lum darajada egallanishi o'zlashtirilib boriladigan va hosil qilinadigan bilim, ko'nikma, malakalar o'tkaziladigan tajribalar o'rtasida mantiqiy va ijodiy tafakkurning rivojlanganligi, mustaqil holda faoliyat yurita olishi, o'zini o'zi nazorat qilib boshqarishi, atrofidagilar bilan ijobiy munosabatlarni yo'lga qo'yishi, qo'lga kiritiladigan muvaffaqiyatlarni avvaldan bashoratlashi va jarayonni loyihalashi, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natijalarni payqashi, muammolarni hal etishi kabi xususiyatlarni talab etadi. Bu kabi sifatlarning shakllanishi uchun, albatta, ma'lum vaqt va muhit zarur bo'ladi.

Bo'lajak agronomlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri o'quv jarayoniga innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni mutaxassis fanlarga joriy etish orqali Vatanimizning bugungi mustaqil taraqqiyoti talablarini belgilash bilan bog'liq dolzarb masaladir.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak agronomlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning turli usul va texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Ayni vaqtda jahon oliy ta'lim tizimi va respublikamizda talabalarning pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishda xorijiy olimlarning fikrlari bilan qiziqamiz.

“Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning kelgusi faoliyatiga zamin yaratish va mehnat bozorida raqobat qila olishga tayyorgarligi hamda qobiliyatini ta'minlash maqadida ijtimoiy etuk shaxni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning optimal yo'llarini ishlab chiqishni talab etadi

Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va pedagogning ta'limiy va tarbiyaviy funksiyasi beqiyos hicoblanadi. Bugungi kunda talabalar kasbiy kompetentligining mamlakatimiz olimlari tomonidan qay jihatdan talqin qilinganligi bizni qiziqtiradi va uni ilmiy tahliliy o'rganish tadqiqotimizning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Birinchidan, ta'lim beruvchi (ya'ni o'qituvchi) yoshlarni qanday bo'lsa shundayligicha iqtidori, layoqati va boshqa imkoniyatlari bilan idrok etish, tabiiy tarzda qabul qilishga o'rganmog'i lozim.

Ikkinchidan, har bir ta'lim muassasasi amalda yoshlarga differensial yondashuvni tashkil qilishi va ulardagi psixologik imkoniyatlarni e'tiborga olishi zarur.

Uchinchidan, ta'lim muassasasida o'qitishning yangicha texnologiyasi va yoshlar aqliy faoliyatidan foydalanishning demokratik turlarini joriy etish. Bunda asosiy jihat o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning har bir fikri va yuksalishiga e'tibor bilan qarashdir.

To'rtinchidan, ta'lim jarayonida psixologiyaning faol – munozara, dialog, breyishtorming, o'yin va boshqa interfaol metodlaridan keng va o'rinli foydalanish o'quvchiga ko'proq o'z fikrlarini bayon qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Demak, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari bir vaqtning o'zida talaba kasbiy kompetentligini rivojlantirishi va uni kelgusi faoliyatida ish jarayonida qo'llay olishiga tayyorlashi nuqtai nazaridan ham samarali natija beradi.



Bo'lajak agranolarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish shakllari, texnologiyalari va vositalari

Shunga ko'ra, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro'y berayotgan o'zgarishlar mavjud bilimlarni doimiy ravishda boyitib borish, ko'nikma va malakalarni kompetensiya darajasiga olib borishni taqozo etadi. Shu sababli har bir mutaxassis o'z ustida ishlashi, bilim va malakalarini uzluksiz oshirib borishi lozim. Ushbu jarayonning samarali kechishida o'zaro tajriba almashish, amaliy seminarlarda ishtirok etish, "ustoz-shogird" an'analari muhim o'rin tutadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Z.E Azimova, ZG Otaboyeva. Talabalarda klasterli metodi orqali xamkorlik madaniyatini rivojlantirish// Экономика и социум 4-2 (119).66-69-b
2. Otaboeva Zulfiya. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikni tashkil etish International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. 55-57-b
3. Зульфия Гофуровна Отабоева. Изучение теоретических аспектов кластеризации образовательного процесса и эффективного повышения практической деятельности. 2023/12/25 Conferencea.81-83-b
4. Z.G.Otaboyeva. Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community "Общество с ограниченной ответственностью" Агентство перспективных научных исследований" КОНФЕРЕНЦИЯ: 28 декабря 2023 года Организаторы: ООО Агентство перспективных научных исследований (АПНИ). 2023/12. 75-78-c
5. Z.G'O Otaboyeva.O'smirlarda vatanparvarlik tarbiya jarayonida ulardagi ijtimoiy faollikni keltirib chiqaruvchi omil // "Экономика и социум"11 (78). 301-304-bet